



RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE PARTIES IN SPORTS AGENCY AGREEMENTS

M.M. Yetmishboyev

Senior Lecturer at the Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan, Captain
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17422428>

ARTICLE INFO

Received: 16th October 2025
Accepted: 21st October 2025
Online: 22nd October 2025

KEYWORDS

Sports agency, agency agreement, parties' rights, obligations, athletes, clubs, legal basis, dispute resolution, national legislation, transparency.

ABSTRACT

This article focuses on the rights and obligations of parties in sports agency agreements. It examines the legal basis of contractual relationships between sports agents, athletes, and clubs, the fundamental rights and obligations of the parties, as well as the compliance of these agreements with international and national legislation. The article analyzes the responsibilities outlined in contracts, transparency of terms, dispute resolution mechanisms, and practical issues. Additionally, it offers suggestions to enhance the effectiveness of sports agency agreements and ensure fair relationships.

SPORT SOHASIDAGI AGENTLIK SHARTNOMASIDA TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

M.M. Yetmishboyev

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi, kapitan
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17422428>

ARTICLE INFO

Received: 16th October 2025
Accepted: 21st October 2025
Online: 22nd October 2025

KEYWORDS

Sport agentligi, agentlik shartnomasi, taraflarning huquqlari, majburiyatlar, sportchilar, klublar, huquqiy asos, mojarolarni hal qilish, milliy qonunchilik, shaffoflik.

ABSTRACT

Maqola sport sohasidagi agentlik shartnomalarida taraflarning huquq va majburiyatlariga bag'ishlangan. Unda sport agentlari, sportchilar va klublar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning huquqiy asoslari, taraflarning asosiy huquq va majburiyatlari, shuningdek, ushbu shartnomalarning xalqaro va milliy qonunchilikka muvofiqligi ko'rib chiqiladi. Maqolada shartnomalarda ko'zda tutilgan mas'uliyat, shartlarning shaffofligi, mojarolarni hal qilish mexanizmlari va amaliy muammolar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, sport agentlik shartnomalarining samaradorligini oshirish va adolatli munosabatlarni ta'minlash bo'yicha takliflar beriladi.

Har qanday fuqarolik-huquqiy shartnoma uchun xos bo'lgan umumiy konstruktsiya – bu shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari hisoblanadi. Zero, taraflarning



kelishuvi har ikkala tarafga ham muayyan huquqlar vujudga kelishini belgilashi bilan birga, ularning zimmasiga majburiyatlar ham yuklaydi. Taraflarning huquq va majburiyatlari shartnoma bo'yicha qanday xatti-harakat amalga oshirilishini nazarda tutuvchi shartnomaning muhim sharti bo'lib, ular har qanday shartnomaning asosiy qismini tashkil etadi. Taraflarning huquq va majburiyatlari majburiyat huquqiy munosabatlarini yuzaga keltirgan yuridik dalil sifatida shartnomaning o'zini emas, balki shartnomaga asoslangan majburiyat huquqiy munosabatlarining mazmunini tashkil etadi¹. Bu holat sportdagi agentlik shartnomasidagi munosabatlarning mazmunini tashkil etadigan shartlarda ham o'z ifodasini topadi. Binobarin, sportdagi agentlik shartnomalarining muhim shartlari uning mazmunini belgilab beradi.

Sportdagi agentlik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari ularning shartnoma bo'yicha huquqiy holatidan kelib chiqib quyidagi uch bosqichga bo'lish mumkin: 1) shartnoma tuzish bosqichidagi huquq va majburiyatlar; 2) shartnomani bajarish bosqichidagi huquq va majburiyatlar; 3) shartnomani bekor qilish bosqichidagi huquq va majburiyatlar.

Shartnoma tuzish bosqichida taraflar zimmasiga tashkiliy-huquqiy huquq va majburiyatlar yuklanadi. Agent sportchi yoki sport tashkilotidan agentlik xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini bajarish uchun tegishli ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishga haqlidir; sportchi yoki sport tashkiloti agentlik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomaning to'g'ri bajarilishini talab qilishga haqlidir. Taraflarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: taraflarning qonun hujjatlari, korporativ hujjatlar, mavjud amaliyot talablariga muvofiq shartnoma munosabatlarini rasmiylashtirish; sport agentiga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish.

Shartnoma bajarish bosqichida agent quyidagi huquq va majburiyatlarga ega: sport bozorida sportchi manfaatlarini himoya qilish; sportchi uchun foydali bo'lgan ishga joylashish bo'yicha takliflarni izlash va ular bo'yicha muzokaralar olib borish; sportchi uchun foydali bo'lgan klub variantlarini izlash; sportchi bilan tegishli shartnomalar tuzishda konsalting, vositachilik va boshqa xizmatlar ko'rsatish; sportchiga qulay shartlarda homiylar va reklama beruvchilarni jalb qilish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish, bunday shaxslar bilan muzokaralar olib borish; sport, davlat va boshqa tashkilotlar, hokimiyat, sport klublari va boshqalarda sportchining vakili bo'lish; O'zbekiston Respublikasida sportchining manfaatlarini uning yurisdiksiya organlari, boshqa milliy assotsiatsiyalar oldida himoya qilish; sportchi nomidan turli shartnomalar, kelishuvlar va h.k.lar tuzish(mehnat shartnomasi tuzish bundan mustasno); sportchidan shartnoma shartlariga rioya qilishni talab qilish; shartnomani bajarishga uchinchi shaxslarni jalb qilish; sportchining manfaatlarini ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan va shartnomaga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshirish.

Sport agentining shartnomani bajarish bosqichidagi majburiyatlari: shartnoma shartlariga va sportchi bilan erishilgan boshqa kelishuvlarga qat'iy rioya qilish;

¹ Гражданского право: Учебник. В 3 т. Т. 1. – 6-е изд., перераб. и доп. / Н.Д.Егоров, И.В.Елисеев и др.; Отв. ред. А.П.Сергеев, Ю.К.Толстой. – М., 2003. – С. 591.



shartnoma bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirayotganda, sportchining manfaatlarini hisobga olgan holda va sportchi manfaatlarini buzishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirmaslik; shartnomani amalga oshirishga qaratilgan muzokaralar va boshqa harakatlar davomida maxfiylikni saqlash; O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, shuningdek korporativ hujjatlarning shartnomani amalga oshirish bo'yicha faoliyat bilan bog'liq tegishli hujjatlariga rioya qilish; professional va ishbilarmonlik obro'sini saqlab qolish, shuningdek, sportchi manfaatlarini yuqori professional darajada ifodalash uchun bilim va ko'nikmalar darajasini oshirish; sportchining muvaffaqiyatlarini ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilish va yoritishga hissa qo'shish, uning sport klubidagi o'yinlariga sharh berish masalalari bo'yicha sportchining fikri va individual pozitsiyasini muvofiqlashtirish.

Sportdagi agentlik shartnomasini bajarish bosqichida sportchining huquqlari: har qanday qiziqtirgan savollar bo'yicha agentga murojaat qilish va shartnoma bo'yicha kerakli maslahatlarni olish; shartnoma bo'yicha agent tomonidan amalga oshiriladigan barcha zarur ma'lumotlarni olish. Sportchi shartnomani bajarish bosqichida quyidagilarga majbur: sport agentiga o'yin shakli va jismoniy holati bo'yicha o'zgarishlar yuz berganda tegishli hujjatlar shaklida ma'lumotlar taqdim etish; zarurat tug'ilganda, agentga shartnomani amalga oshirish uchun agent tomonidan talab qilinishi mumkin bo'lgan qo'shimcha vakolatlarni berish; zarurat vujudga kelsa shartnomani bajarishi uchun agentga ishonchnoma berish va kerak bo'lganda vakolatlarini tasdiqlash; agent hisobotini qabul qilish; sportchiga yoki u turgan sport klubiga kelib tushgan taklif to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishi va agentning rozilgisiz kelib tushgan takliflarni qabul qilmasligi; agent tomonidan tavsiya etilgan uchinchi shaxslardan kelgan va shartnomani amalga oshirishga oid takliflarni ko'rib chiqish va ularga javob berish; agentning shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha shuningdek reklamadagi ishtiroki bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi shaxslar bilan har qanday muzokaralarni faqat agent orqali amalga oshirish; to'lov kvitansiyalarini taqdim etish; shartnoma bo'yicha maxfiylikni saqlash; shartnomada belgilangan talablarga qat'iy rioya qilish.

Sportdagi agentlik shartnomasini bekor qilish bosqichida taraflar quyidagilarga haqli: ko'rsatilgan xizmat uchun hisobot taqdim etish; yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirish; sport agenti tomonidan hisobot taqdim etilmagan taqdirda shartnomani bekor qilish; agentlik xizmatlarini taqdim etganlik uchun haq to'lash kechiktirilgan taqdirda va bu to'lovlarsiz shartnoma majburiyatini bajarishni davom ettirish imkonsiz bo'lsa shartnomani bekor qilish; shartnomani bir tomonlama bekor qilish vujudga kelganda mazkur talabni asoslantirish².

Fikrimizcha, bu o'rinda sportdagi agentlik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarining barchasi o'rinlidir. Shuni ham ta'kidlash lozimki taraflarning shartnomaviy huquq va majburiyatlarini belgilashda korporativ normalarning ustuvor ekanligi ko'rinadi.

² Maxym Tkalych. THE LEGAL NATURE OF THE AGENCY SERVICES CONTRACT IN SPORTS. <https://www.academia.edu/9386995/> (murojaat etilgan sana 15.10.2023)



Aytish joizki, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan har qanday shartnomalar, jumladan sportdagi agentlik shartnomasida taraflarning majburiyatlari FKning 234-moddasi qoidalaridan anglashiladi. Jumladan, ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilanishicha, majburiyatlar shartnomadan, ziyon etkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi. Majburiyatni vujudga keltirish asosi sifatida sportdagi agentlik shartnomasida sport tashkilotlari, sport federatsiyalari, sportchi hamda sport agentlari o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlardan tashkil topadi. Shu bois ushbu shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari muayyan o'ringa ega.

Mazkur shartnoma ham fuqarolik huquqidagi shartnomalarning umumiy konstruksiyasiga bo'ysundirilgan bo'lib, ushbu shartnomaning taraflari bo'lgan sport tashkilotlari, sport federatsiyalari, sportchi va agentlarning huquq va majburiyatlari shartnomaning mazmunini tashkil etuvchi muhim shartlar jumlasiga kiradi.

Mazkur shartnomalarini tartibga solishdagi yondashuv amaldagi fuqarolik qonunchiligida belgilangan shartnoma munosabatlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari majmui asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, professional sport sohasining bir qator xususiyatlarini hisobga olgan holda, agentlik faoliyatining maxsus huquqiy rejimi doirasida agentlik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarining ancha kengaytirilgan tizimini kuzatish mumkin. Chunonchi, bugungi kunda sport agenti - bu prodyuser, top-menejer, shaxsiy ma'mur va tijorat direktorining aralashmasi bo'lib, u sportchining mashg'ulot jarayoni va musobaqalarga to'liq e'tiborini qaratishiga ishonch hosil qiladi. Zamonaviy sportdagi stress va raqobat darajasi shunchalik yuqoriki, professional sportchi oddiygina maishiy va tijorat muammolari bilan chalg'itishga qodir emas. Shu boisdan sport agentning shartnomaviy majburiyatlar doirasi ham o'z navbatida kengayib bormoqda.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, agentlik shartnomasi taraflarining ayrim huquq va majburiyatlari shartnomadan tashqari xarakterga ega, shu bilan birga, huquqiy majburiyatlar ko'pincha sport federatsiyalarining subyektiv huquqlari toifasida shakllantirilishi ko'zga tashlanadi. Xususan, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huquqiy hujjatlarida ham sport agentlarining huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Sport agentlari FIFA tomonidan tasdiqlangan normalar bo'yicha harakat qilishi mumkin. O'zbekiston professional futbol klublarining futbol bo'yicha musobaqalar Reglamentida sport agentlari futbolchiga noto'g'ri maslahat berishi yoki noto'g'ri yo'lga boshqarishi klub yoki O'FA belgilagan majburiyatlar buzilishiga olib kelsa sport agenti jazolanishi mumkinligi belgilangan. Reglament qoidalarini buzgan agentlarga 500 million so'm miqdorida jarima tayinlanishi mumkin³. Shu bilan birga, bu shart aslida majburiyatdir, chunki agent yozma kelishuvsiz sportchining manfaatlarini ifodalashga haqli emas, bu esa o'z navbatida sport federatsiyalari tomonidan belgilangan barcha talablarga javob berishi kerak. Bu majburiyat, ma'lum bir shartnoma tuzilganidan qat'i nazar, sport agenti uchun mavjud bo'lib, agentlik shartnomasining mazmuniga hech qanday aloqasi yo'q. Agentning

³ Назаров Ш.Х. Спорт соҳасида профессионал муносабатларини ҳуқуқий тартибга солишнинг айрим масалалари // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали. – 2022. – №3. – Б. 6.



o'z faoliyatini amalga oshirishga uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqi, shu jumladan agentlik shartnomasining ayrim shartlarini bajarishga yordam berishi mumkin bo'lgan huquq ham xuddi shunday tarzda shakllantiriladi. Sport agentlari huquqlarini shakllantirish borasida ham xuddi shunday holat ichki futbol doirasida kuzatilmoqda⁴.

Olimlarning ta'kidlashicha, agentga shartnoma predmetidan tashqariga chiqish huquqi ham beriladi. Shundan kelib chiqqan holda, sport agentiga sport klubi bilan mehnat shartnomasini tuzish masalasini topshirib, sportchi bevosita mehnat shartnomasi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa harakatlarni bajarishni so'rashi mumkin va agent o'z navbatida, shartnoma predmetini o'zgartirish, futbolchining boshqa klubga o'tishiga ko'maklashish, futbolchining huquq va manfaatlarini, hatto bevosita mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan masalalarda ham himoya qilish huquqiga ega⁵. Binobarin, sportdagi agentlik faoliyati nafaqat sport bilan bog'liq yuridik va faktik harakatlarni balki, sportchilar va sport tizimidagi subyektlarni ishga joylashtirish bog'liq boshqa turdagi harakatlarni ham amalga oshiradi, bu yondashuv esa korporativ aktlarda namoyon bo'ladi.

Bunday asoslash, umuman olganda, Fuqarolik kodeksining topshiriq bitimlari to'g'risidagi qoidalariga mos keladi, unga muvofiq, agar ishning holatlariga ko'ra topshiriq beruvchining manfaatlari uchun uning ko'rsatmalaridan chetga chiqish zarur bo'lsa hamda vakil topshiriq beruvchidan bu haqda oldindan so'ray olmagan yoxud o'z so'roviga oqilona muddatda javob olmagan bo'lsa, u topshiriq beruvchining ko'rsatmalaridan chetga chiqishga haqli. Bunday hollarda vakil xabar berish imkoni tug'ilishi bilanoq yo'l qo'yilgan chetga chiqishlar haqida topshiriq beruvchiga xabar berishi shart (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 819-moddasi 2-bandi). Ushbu normaning amalga oshirilishi FIFAning "Futbol agentlari faoliyati to'g'risida"gi reglamentida belgilangan talabga asoslanadi, unga ko'ra futbol agenti xizmatlaridan tashqari mijoz uchun yoki uning nomidan amalga oshiriladigan har qanday xizmatlar, shu jumladan, yuridik maslahat, moliyaviy rejalashtirish, skautlik, maslahat, imidj huquqlarini boshqarish va tijorat shartnomalarini tuzishda muzokaralar olib borish huquqi⁶ belgilab qo'yilgan.

Ta'kidlash lozimki, sport agentining subyektiv huquqlari, xizmat uchun haq olish va subdogovor elementlaridan foydalanish kabi huquqlardan tashqari boshqa huquqlari sport federatsiyalarining amaldagi korporativ aktlarida deyarli belgilanmaganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, fuqarolik qonunchiligida agentlik huquqlarining mazmunli tavsifi mavjud emas, bu bizga qonunga zid bo'lmagan har qanday agentlik huquqlarini sportdagi agentlik shartnomasi mazmuniga kiritish mumkin degan xulosaga kelish imkonini beradi. Jumladan, agent o'z manfaati ostida bo'lgan sportchi to'g'risida va

⁴ *Изоҳ:* ФИФАнинг “Футбол агентлари фаолияти тўғрисида”ги регламенти ўФА футбол агентларига ҳам татбиқ этилади.

⁵ Муртазин А.И. Субдоговор как форма участия третьего лица в обязательстве // Вестник экономики, права и социологии. – 2010. – № 3. – С. 64.; Огнев В.Н. Субдоговор и иные формы участия третьих лиц в исполнении обязательств // Вестник Пермского университета. Юридические науки. – 2012. – № 2. – С. 146.

⁶ FIFA FOOTBALL AGENT REGULATIONS.
<https://digitalhub.fifa.com/m/1e7b741fa0fae779/original/FIFA-Football-Agent-Regulations.pdf>



uning mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan holatlar to'g'risida ma'lumot olish huquqi, shuningdek sportchining mehnat huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan vakolatli organ va tashkilotlarga murojaat qilish huquqi.

Sport agentlari sport federatsiyalarining korporativ hujjatlari va qarorlariga, shuningdek sport to'g'risidagi qonunchilik bilan birga fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, agentlik shartnomalarini bajarish jarayonida sport agentlari ko'proq kasbiy va axloqiy xarakterga ega bo'lgan bir qator taqiq va cheklovlarga rioya qilishga majbur. Xususan, agent o'zi vakillik qilayotgan sportchining mehnat shartnomalarini bekor qilishda hech qanday yordam ko'rsatishga haqli emas⁷. Fikrimizcha mazkur talab sport agentining huquqlariga zid hisoblanadi, chunki ish beruvchi ya'ni sport klubi tomonidan sportchi uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldinda ko'ra olishi mumkin bo'lgan sport agenti bu haqida sportchini ogohlantirmaslik albatta agentning shartnomaviy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Sportdagi iqtisodiy muhitda inqirozli hodisalar tufayli moliyaviy farovonlikka va sportchilarning sport tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarini bajarish uchun tegishli shart-sharoitlarga tahdidlar ko'zga tashlanadi. Bunday holatda agent sport klubining bankrotligi yoki uning tarkibiy qismining o'zgarishini, shuningdek ish beruvchining qoniqarsiz moliyaviy ahvoli haqida sportchini ogohlantirishi zarur va bu uning majburiyati hisoblanishi zarur, chunki bu holatlar sportchi uchun katta yo'qotishlar keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, sport agentini fuqarolik qonunchiligi ham, sport federatsiyalarining korporativ (mahalliy) aktlari ham sportchining agentlik shartnomasida ham ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida ham zaif tomon ekanligi ya'ni, u tegishli sport turida amal qiladigan huquq va normalar majmui bo'yicha mutaxassis emasligi kelib chiqadi. Aslida, sport agenti sportchi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish uchun bunday mutaxassisning vazifasini bajaradi⁸. Fikrimizcha, sport agentining shartnomaviy huquq va majburiyatlari sirasiga sportchi uchun manfaatli bo'lgan boshqa yuridik va faktik harakatlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi vakolatlar berilishi lozim.

Adabiyotlarda bunday taqiqlarning mavjudligi ba'zan tadbirkorlik faoliyati erkinligiga aralashish va iqtisodiy munosabatlarni cheklash sifatida qabul qilinadi⁹. Bozor mexanizmining azaliy aksiomasi - xizmat sifati qanchalik yuqori bo'lsa, unga talab shunchalik ko'p bo'ladi. Bu fikr, albatta, professional sport turlariga ham taalluqlidir. Yana

⁷ П. 1 ст. 18 Регламента РФС по агентской деятельности; п. 4.13 Положения о регулировании деятельности агентов игроков в РФБ; п. 9.2 Временного положения об аккредитации хоккейных агентов КХЛ.

⁸ Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Договоры о выполнении работ и оказании услуг. Книга 3. – М.: Статут, 2002. – С. 268.

⁹ Петров Д.А. Правовые и экономические предпосылки саморегулирования в сфере предпринимательства // Российский ежегодник предпринимательского (коммерческого) права. – 2010. – № 3. – С.211.; Добрынин А.И., Бахарев В.О. Большие проблемы малого предпринимательства // Экономика и управление. – 2010. – № 4. – С.41; Коваленко Б.Б., Добрынин А.И. Философские основы, этика и культура предпринимательства // Экономика и управление. – 2010. – № 1. – С. 104.



shuni alohida ta'kidlash lozimki, sportchining huquqlari va manfaatlarini korporativ darajadagi agentning sifatsiz harakatlaridan himoya qilish tizimi bo'lmagan taqdirda, sportchining o'zi professional vositachini tanlash huquqiga ega ekanligi aniq.

Ta'kidlab o'tilganidek, agent o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlar bilan aloqa qiladi va o'zining shaxsiy ma'lumotlar bazasini shakllantiradi, bu esa tadbirkorlikning umumiy mantig'iga ko'ra, u vakillik qiladigan shaxslarning manfaatlarini ko'zlab biznes aloqalarini o'rnatish muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shuningdek, milliy miqyosda faoliyat yuritayotgan sport klublari unchalik ko'p emasligini ham hisobga olsak, ko'pchilik agentlar ular bilan uzoq muddatli hamkorlikni davom ettirishga harakat qiladilar va shu bilan iqtidorli sportchilarni izlash va ishga joylashtirish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradilar.

Sport agentlarining agentlik shartnomalarini bajarish doirasidagi boshqa majburiyatlari shartnoma bo'yicha kontragentga nisbatan ko'proq tashqi tashkilotlarga qaratilgan. Jumladan, tegishli sport federatsiyalarining nazorat bo'linmalariga barcha to'liq ma'lumotlarni taqdim etish talabi, agentlik shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish majburiyati, uning to'g'ri rasmiylashtirilishi, ro'yxatdan o'tgan shartnoma nusxasini direktorga taqdim etishi va to'g'ri moliyaviy hisob-kitoblar shular jumlasidandir. Bu majburiyatlarning agentlik shartnomalarining haqiqiy mazmuni bilan hech qanday aloqasi yo'q, garchi agentlik faoliyati amaliyotida ularni e'tiborsiz qoldirishdan ko'ra, shartnoma tarkibiga agentni majburlovchi barcha bandlarni kiritish qulayroqdir. Shu bilan birga, sportda agentlik faoliyatining alohida huquqiy rejimi doirasida oldindan bajarilishi mumkin bo'lmagan shartnoma majburiyatlari ham mavjud. Masalan, agentlik shartnomasini bajarishda, birinchi navbatda, shartnoma shartlarini bajarish va ish beruvchilar bilan munosabatlarda uning manfaatlariga rioya qilish bo'yicha direktorning o'zi bilan nizolarga yo'l qo'ymaslik nazarda tutiladi. Boshqa tomondan, sport klubi bilan shartnoma majburiyatlari mavjudligidan qat'i nazar, agent har qanday nizolarni oldini olishga va ularni qo'zg'atmaslikka majburdir. Fikrimizcha, bunday subyektiv majburiyatlarni shakllantirish o'z-o'zidan to'g'ri emas, chunki bunda majburiyatlarni belgilash tadbirkorlik faoliyati va korporativ aktlarning boshqa qoidalari nuqtai nazaridan qarama-qarshi normadir.

M.B. Telemuratovning fikricha, sport munosabatlarida, sportchi faoliyatining tizimli yo'lga qo'yilishida vakillik (agentlik) instituti muhim o'rin tutadi. Chunki sport vakillari sportchi uchun munosib klubni topishda, uning sport karyerasi rivojlanishida katta hajmdagi ishni bajaradi. Biroq bugungi kunda mazkur faoliyat turini tartibga soladigan maxsus qonunchilik hujjati mavjud emas. Mazkur bo'shliqni bartaraf etish maqsadida "Sport vakilligi (agentligi) to'g'risida" alohida Nizom qabul qilinishi zarur. Ushbu nizomda sport vakilligining o'ziga xos tomonlari, sport vakili va sportchi o'rtasidagi munosabatlar, ularning huquq va majburiyatlari, sportchi huquqlarining kafolatlari, sport vakilligining turlari, ularning bir biridan farqli tomonlari aks ettirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuniga "sport agenti" nomli yangi modda bilan to'ldirish hamda mazkur tahrirda sport agentlarining



huquq va majburiyatlari taraflarning o'zaro kelishuvi bilan belgilanadi¹⁰ degan normani kiritish g'oyasini ilgari suradi. Muallifning fikrida jon bor, albatta, yana shuni ham ta'kidlash lozimki, zamonaviy davrda agentlik faoliyatini amalga oshirishda tartibni saqlash jarayonida sport tizimi subyektlari oldidagi agentlik majburiyatlarini vijdonan bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Sport sohasidagi agentlik shartnomasini huquqiy tartibga solishda asosiy o'rinni agentlarning o'z majburiyatlarini bajarishi egallaydi¹¹.

T.I. Xakimovning ham ta'kidlashicha, sportchi va vakil (ayrim holatlarda vositachi deb ham nomlanadi) o'rtasidagi shartnomalarda taraflarning huquq va majburiyatlarini shakllantirish borasida muammolar ham uchraydi¹². Masalan, OOO "DSF-Agency" nomidan, Ustav va shuningdek FIFA tomonidan tasdiqlangan "UFAning futbolchilarining statusi va o'yinlari bo'yicha reglamenti" va UFA, UzPFLing boshqa tegishli hujjatlari asosida ish yurituvchi va bundan (keyinchalik matnda – Vositachi) deb yurituvchi, direktor A.R. bilan bundan (keyinchalik matnda – Futbolchi) deb yuritiluvchi YU.A. o'rtasida shartnoma tuzilgan. Shartnomaning predmeti bo'lib, futbolchi tomonidan vositachiga manfaatlarini ifoda qilish va vakillik qilish huquqini topshirish bilan birga, shuningdek, futbolchi manfaatlarini qo'llagan holda futbolchi nomidan va uning hisobidan yuridik va boshqa harakatlarni amalga oshirish huquqini berish hisoblanishi belgilangan. Ushbu shartnomada taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaning nomi va predmeti o'zaro mos kelmaydi. Chunki shartnomaning bir tarafi vositachi deb nomlangani holda, futbolchi bilan vakillik shartnomasi tuzilmoqda. FKning 832-moddasiga muvofiq, vositachi komitent topshirig'iga ko'ra, o'z nomidan, biroq uning hisobidan bir yoki bir nechta bitimlarni tuzadi. Bundan farqli ravishda vakil topshiriq beruvchining nomidan¹³ va hisobidan yuridik harakatlarni amalga oshiradi (FK 817-m.).

Sport sohasidagi agentlik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarini tahlil etishda Rossiya Federatsiyasining Qit'a xokkey ligasi (QLH) reglamenti misolida ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. QXL reglamentining 8-bobi "Xokkeychilar bilan shartnomalar" deb nomlangan bo'lib, ushbu reglamentining 34-moddasi 1-bandiga muvofiq, "shartnoma – bu klub va xokkeychi o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rnatish to'g'risidagi ikki tomonlama kelishuv bo'lib, unda federal qonunga muvofiq sportchi (xokkeychi)ning jismoniy tarbiya va sport tashkilotiga (klubga) tegishli ekanligi aniqlanadi"¹⁴. Ushbu me'yorning mazmunidan kelib chiqqan holda, mehnat shartnomasi "sportchiga tegishli", ya'ni ushbu holatda xokkeychi, klubga (jismoniy tarbiya va sport

¹⁰ Телемумратов М.Б. Профессионал спорт муносабатларини фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш: Юрид. фан. фал. д-ри ... дис. – Т., 2023. – Б.130.

¹¹ Lushnikov A. M., Lushnikova M. V. The course of labor law: textbook: in 2 tons. – Moscow.: Statut, – 2009. – P. 2

¹² Хакимов Т.И. Актуальные вопросы правовой регламентации договорных отношений в области спорта // Евразийский юридический журнал. – М., 2014. –№ 3(70). – С.187. <http://naukarus.com/aktualnye-voprosy-pravovoy-reglamentatsii-dogovornyh-otnosheniy-v-oblasti-sporta>

¹³ Вавилин Е.В. Механизмы осуществления гражданских прав в области профессионального спорта // Российская юстиция. – 2007. – № 11. – С. 15-19.

¹⁴ Регламент КХЛ сезоны 2021/2022, 2022/2023, 2023/2024, 2024/2025 // https://www.khl.ru/documents/KHL_regulations_glossary_2022.pdf (мурожаат этилган сана 20.11.2023)



tashkilotiga) bog'liqligini aniqlash holatini qanday tushunish kerakligi haqida savol tug'iladi. Bundan tashqari, ushbu "sportchining mansubligi" federal qonun bilan aniqlanadi. QXL reglamentlarining ushbu moddasi 2-bandida shartnoma faqat Liga tomonidan tasdiqlangan namunaviy shakllarga muvofiq tuzilishi kerakligi ko'rsatilgan. Reglamentlarga kiritilgan Liga xokkeychisi uchun standart shartnomalarning namunaviy shakllari Ligadagi mahalliy normativ hujjatlarning kuchiga ega bo'ladi. Ligada ro'yxatdan o'tish uchun standart shakldan boshqa shartnomalar qabul qilinmaydi va ular bo'yicha da'volar ko'rib chiqilmaydi. QXL reglamentining ushbu moddasini keyingi tahlili ko'plab savollarni tug'diradi, ularning javoblari hali ham huquqiy ta'limot va amaliyotda ishlab chiqilmagan. Shunday qilib, 34-moddaning 5 va 6-bandlarida ushbu shartnoma 2010-yilda Liga tomonidan tasdiqlangan va jamoaviy bitim, shartnomalar bilan kelishilgan paytdan boshlab, shartnoma klub va xokkeychi o'rtasida kelishuvning yagona mumkin bo'lgan shakli ekanligi qayd etilgan. Shartnomalarning barcha boshqa shakllari va turlari haqiqiy emas deb hisoblanadi. Shartnoma xokkeychi va klub o'rtasidagi barcha o'zaro kelishuvlarning to'liq qoidalarini o'z ichiga oladi. Ligadagi xokkeychining standart shartnomasiga qo'shimcha maxfiy ilovalarni tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Shartnomaning har qanday bo'limlarini, moddalarini, qoidalarini tuzatishga yoki o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu qoidalarni hisobga olgan holda, QXL reglamentida 34-moddasi 4-bandining mavjudligi va mazmuni unchalik tushunarli emas, unga ko'ra, shartnomani imzolashdan oldin xokkeychi va klub avval ko'rsatilgan barcha shartlar hamda majburiyatlar shartnomaga kiritilganligiga va uning mazmuni hamda talqini tomonlarga tushunarli bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun uning matnini diqqat bilan o'rganib chiqishi kerakligi ko'rsatilgan.

*Birinchi*dan, tomonlarning barcha shartlari va majburiyatlari Liga tomonidan allaqachon shartnomaga kiritilgan hamda tomonlarga taklif qilingan.

*Ikkinchi*dan, bunday shartnomaning har qanday bo'limlarini, moddalarini, qoidalarini tuzatish yoki o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

*Uchinchi*dan, shartnomaning boshqa shakllari va turlari Liga tomonidan tan olinmaydi.

*To'rtinchi*dan, bunday shartnomaga qo'shimcha maxfiy ilova tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, tahlil qilingan 10-moddaga asosan, xokkeychi va klub o'rtasida tuzilgan shartnoma tomonlar imzolagan paytdan boshlab, lekin faqat mehnat munosabatlarini tartibga solish qismigina kuchga kiradi. Ligadagi mahalliy normativ hujjatlardan kelib chiqadigan boshqa munosabatlarni tartibga solish bo'yicha shartnoma Ligada tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Shu bilan birga, birorta ham xokkeychi Liga tomonidan tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tgan klub bilan tuzilgan shartnomasiz Liga tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda qatnashish huquqiga ega emas (34-moddaning 8-bandi). Shunday qilib, xokkeychi va klub o'rtasida tuzilgan shartnoma aslida hech qanday qonuniy oqibatlariga olib kelmaydi. Bunday shartnomani bekor qilish uchun asoslar to'g'risidagi qoidalar qonun nuqtai nazaridan yanada qiziqarlidir.



Xususan, QXL reglamentining 8-bobi 48-moddasiga binoan, xokkeychining tashabbusi bilan (o'z xohishi bilan) shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda, shuningdek klub tashabbusi bilan intizomiy jazo choralari bilan bog'liq asoslar bo'yicha bekor qilingan taqdirda, xokkeychi klub foydasiga quyidagi tartibda va miqdorlarda pul to'lashi shart:

1) agar xokkeychi shartnomani bekor qilish paytida 28 yoshga to'lmagan bo'lsa, u klubga shartnoma bo'yicha umumiy ish haqining 2/3 qismini to'laydi;

2) agar xokkeychi shartnomani bekor qilish paytida 28 yoshga to'lgan bo'lsa, u klubga shartnoma bo'yicha umumiy ish haqining 1/3 qismini to'laydi¹⁵.

Bundan tashqari, sportchi o'z buzilgan subyektiv huquqlarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qilmasligi uchun, klublar va xokkeychilar o'rtasidagi shartnoma munosabatlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar yoki da'volar Liga intizom qo'mitasi yoki sport arbitraj sudi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Intizom qo'mitasi va Sport arbitraj sudining qarorlari yakuniy hisoblanadi va boshqa Liga organlari va sudlariga shikoyat qilinishi mumkin emas. Bundan tashqari, QXL Reglamentida sportchilarning holati, boshqa klubga o'tishi, harakatlari va tovon to'lovlari va hokozolar to'g'risidagi qoidalar belgilangan (9-bob)¹⁶.

QXL reglamentining normalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu normalarning aksariyati muqarrar ravishda sportchilarning subyektiv huquqlarini buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, qanchalik g'alati ko'rinmasin, bunday qonunbuzarliklar qonun chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, sportdagi agentlik shartnomalari taraflarining huquq va majburiyatlari tizimini yaratishga yondashuvi hozircha ancha noaniq.

Sport agentlarining agentlik shartnomalarini bajarish doirasidagi ba'zi vazifalari asosiya emas, balki tashqi shaxslarga qaratilgan bo'lib, bu ham shartnomalar mazmunini tuzishning umumiy fuqarolik-huquqiy mantig'iga mos kelmaydi. Shuningdek, sportda agentlik faoliyatining maxsus huquqiy rejimi doirasida oldindan bajarib bo'lmaydigan shartnoma majburiyatlari (masalan, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish majburiyati) mavjud bo'lib, ular fuqarolik qoidalari tufayli agentlik shartnomasiga umuman kiritilishi mumkin emas, aks holda ular ahamiyatsiz shartlar sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Korporativ darajada shakllantirilgan bir qator agentlik majburiyatlari ziddiyatli hisoblanib va bu majburiyatlar qayta ko'rib chiqilishi kerak. Xususan, agent o'zi vakillik qilayotgan sportchining mehnat shartnomalarini bekor qilishda hech qanday tarzda yordam berishga haqli emas. Bizning fikrimizcha, ish beruvchi (sport klubi) tomonidan sportchi uchun salbiy oqibatlarini oldindan biladigan va uni bu haqda ogohlantirish imkoniyatiga ega bo'la turib agent ular o'rtasida o'rnatilgan mehnat munosabatlariga

¹⁵ Регламент КХЛ сезоны 2021/2022, 2022/2023, 2023/2024, 2024/2025 // https://www.khl.ru/documents/KHL_regulations_glossary_2022.pdf (мурожаат этилган сана 20.11.2023)

¹⁶ Reglament KXL сезоны 2021/2022, 2022/2023, 2023/2024, 2024/2025 // https://www.khl.ru/documents/KHL_regulations_glossary_2022.pdf (мурожаат этилган сана 20.11.2023)



aralashmaslikka majburdir. biroq agent sportchi uchun salbiy oqibatlarni bila turib unga xabar bermasligi agent va sportchi o'rtasida ziddiyatli holatlarga sabab bo'ladi. Yana bir holat agar sportchining professional faoliyat bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish uchun agentdan foydalanish huquqi mavjud bo'lsa, agentning o'zi agentga ega bo'lgan sportchi bilan aloqada bo'lmaslik majburiyatini belgilaydi. Ushbu me'yorlar raqobatini faqat korporativ talablarni o'zgartirish orqali hal qilish mumkin. Xususan, ko'rsatilgan taqiqni sport agentining kasbiy vazifalari doirasidan olib tashlash yoki uni amalga oshirish chegaralarini belgilash kerak.

E'tirof etish kerakki, sport agentining subyektiv huquqlari, haq to'lash va subpudrat elementlaridan foydalanish huquqidan tashqari, sport federatsiyalarining amaldagi korporativ hujjatlarida belgilanmagan. Shu bilan birga, fuqarolik qonunchiligida agentlik huquqlarining mazmunli tavsifi mavjud emas, bu esa qonunga zid bo'lmagan har qanday agentlik huquqlarini sportdagi agentlik shartnomasi mazmuniga kiritish mumkin, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Shuningdek, korporativ aktlarda sportchining huquqlari ro'yxati kuzatilmaydi, buning natijasida ular sport agentining tegishli majburiyatlaridan kelib chiqadi, deb taxmin qilish mumkin.

Milliy futbol doirasida O'FA tomonidan huquq va majburiyatlarning aniq ro'yxatini belgilash orqali agentlik shartnomalarining mazmuniga faol aralashuv mavjud. O'FAda agentlik munosabatlari subyektlarining huquq va majburiyatlarini shakllantirishga mazmunli yondashuv mavjud emas.

Xokkey Federatsiyasida ham xokkey bo'yicha agentlik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari bo'yicha maxsus qoidalar mavjud emas, bu agentlik shartnomasini qo'llash amaliyotini murakkablashtiradi.

Agentlik shartnomasi bo'yicha tomonlarning alohida huquq va majburiyatlari faqat shartnomadan tashqari xarakterga ega, aniq yuridik majburiyatlar esa korporativ darajada subyektiv huquqlar niqobi ostida yashiringan. Xususan, basketbol agenti u bilan shartnomaviy munosabatlarga kirgan o'yinchining manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega, ammo bu shart aslida majburiyatdir, chunki agent yozma arizasiz sportchining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas.

Ushbu majburiyat sport agenti uchun muayyan shartnoma tuzilganidan qat'iy nazar mavjud va agentlik shartnomasining mazmuniga hech qanday aloqasi yo'q. Agentning o'z faoliyatini amalga oshirishga uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqi, shu jumladan, agentlik shartnomasining ayrim shartlarini bajarishga yordam berishi mumkin bo'lgan huquq ham xuddi shunday tarzda shakllantiriladi. Biroq agentlik faoliyatining maxsus huquqiy rejimidagi ushbu nuqsondan shartnomada ishtirok etuvchi tomonlarning manfaatlarini ko'zlab foydalanish kerak. Shartnomada tomonlar agent tomonidan uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanishni taqiqlash to'g'risida mutlaqo teskari shartni shakllantirish yoki bunday subpudratchi subyektlarning toifasini sezilarli darajada cheklash huquqiga ega.